# Бюджет истеъмолчилари учун электр таъминоти
# ШАРТНОМАСИ

2027 йил "26" 01 150 -сон Балиқчи

«Андижон худудий электр тармоқлари» АЖ Балиқчи электр таъминоти корхонаси (кейинги ўринларда "Корхона" деб юритилади) низомнома асосида фаолият юритувчи раҳбари Жўраев Абдусатторович бир томондан ҳамда МТБ нинг низоми асосида фаолият юритувчи раҳбари Ф. Абдуразаков (кейинги ўринларда "Истеъмолчи" деб аталади), ҳисоб варақаси ________ иккинчи томондан мазкур шартномани қуйидагилар тўғрисида туздилар:

### I. Шартнома предмети

Ушбу шартнома билан "Корхона" тармоқлари орқали электр энергиясини (кейинги ўринларда - энергия деб аталади) "Истеъмолчи"га етказиб бериш, "Истеъмолчи" эса истеъмол қилинган энергия ҳаққини ўз вақтида тўлаш мажбуриятини олади.

### II. Етказиб берилган энергия ҳисоби

2.1. Энергия истеъмолининг йиллик шартномавий ҳажми:актив 23331 кВт.с., реактив ________ кВар.с ташкил этади. 10498950

2.2. Етказиб бериладиган энергиянинг шартнома тузилган кундаги умумий нархи 450 тариф бўйича 10498950 сўмни ташкил этади.Шундан бюджет маблағлари ҳисобидан 10498950 сўмни, бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан ________ сўмни ташкил қилади.

2.3. "Истеъмолчи"га энергия ушбу шартноманинг 1-иловасига мувофиқ етказиб берилади.

2.4. "Истеъмолчи" томонидан ҳақ тўланиши лозим бўлган ҳақиқий қабул қилиб олинган энергиянинг ҳажми ҳисобга олиш асбобларининг (кейинги ўринларда - ҳисоблагичлар деб аталади) кўрсаткичлари асосида ушбу шартноманинг 2-иловасида назарда тутилган тартибда аниқланади.

### III. Ҳисоб-китоб қилиш тартиби

3.1. Энергия учун ҳисоб-китоблар табақалаштирилган, бир ставкали ёки ўсиб борувчи коэффициентли тарифлар асосида амалга оширилади (нарх шакллантиришнинг алоҳида тартиби).

3.2. Уланган қуввати 750 кВА ва ундан юқори бўлган "Истеъмолчи" (бюджет ташкилотлари, фермер хўжаликлари ва сув истеъмолчилари уюшмаларининг насос станциялари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетидан молиялаштириладиган насос станциялари бундан мустасно) энергия учун ҳисоб-китобларни сутка вақтларининг табақалаштирилган тарифи бўйича амалга оширади.

Табақалаштирилган тариф бўйича ҳисоб-китоблар: ярим тиғиз пайт - сутканинг ёруғ вақтида (соат 9:00 дан 17:00 гача) ўрнатилган тариф бўйича;

тиғиз пайт – энг катта юкламали соатларда (ягона электр энергетика тизимининг энг катта юкламали соатлари эрталабки энг катта миқдор соат 6:00 дан 9:00 гача, кечки энг катта миқдор соат 17:00 дан 22:00 гача) белгиланган тарифга нисбатан 1,5 баравар миқдорда ўсувчи коэффициентни қўллаш орқали;

тунги пайт – сутканинг қоронғи вақтида (энг кам юкламали соатларида: 22:00 дан 24:00 гача ва 00:00 дан 6:00 гача) – белгиланган тарифга нисбатан 1,5 баравар миқдорда камаювчи коэффициентни қўллаш орқали амалга оширилади.

Белгиланган тариф II-тариф гуруҳидаги "Истеъмолчи"ларнинг бир ставкали тарифига мувофиқлиг Табақалаштирилган тариф қўлланилмайдиган "Истеъмолчи"га энергия учун ҳисоб-китобларда бир ставкали тариф қўлланилади. Уланган қуввати 750 кВАгача бўлган "Истеъмолчи"га энергияни реализация қилиш нархи шакллантиришнинг алоҳида тартиби белгиланадиган ташкилотлар рўйхатига кирувчи маҳсулот ишлаб чиқарувчи ва айрим хизматлар кўрсатувчи "Истеъмолчи" учун Ҳукумат қарори билан белгиланадиган тарифлар ва ўсиб борувчи коэффициентли тўловлар асосида амалга оширилади.

3.3. Ушбу шартнома бўйича ҳисоб-китоб даври бир ой ҳисобланади.

3.4. "Истеъмолчи" ҳар ойда Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюросининг (кейинги ўринларда "Бюро" деб аталади) ваколатли вакили иштирокида ҳисоб-китоб даври охирида ҳисоблагичлар кўрсаткичларини ёзиб олади ва ушбу шартноманинг 3-иловасига мувофиқ шаклда энергия сарфи бўйича ҳисоботни тузади.

"Истеъмолчи" энергия сарфи бўйича ҳисоботни "Корхона"га ҳар ойнинг "30" санасигача чопар орқали ёки факсимил алоқа ёхуд электрон почта алоқаси орқали тақдим этади.

Бунда, тўловларни табақалаштирилган тарифда амалга оширувчи, уланган қуввати 750 кВА ва ундан юқори бўлган "Истеъмолчи" бўйича энергия (актив ва реактив) сарфининг тўлиқ ҳажмидан ташқари, алоҳида-алоҳида тиғиз, ярим тиғиз ва тунги пайтлардаги ҳажмлари ҳам аниқланиши шарт.

3.5. Тарифлар ўзгарганида "Истеъмолчи" етказиб берилаётган энергия учун янги тарифлар кучга кирган кундан бошлаб истеъмол қилинган энергия учун янги тарифлар бўйича ҳақ тўлайди.

3.6. "Истеъмолчи"га энергияни етказиб бериш келгуси ҳисоб-китоб даври бошланишидан олдин, энергиянинг шартномавий миқдори қиймати учун 100 фоизлик олдиндан ҳақ тўлаш асосида амалга оширилади.

3.7. Энергия сарфи бўйича ҳисобот асосида "Корхона" ўрнатилган тартибда ҳисоб-китобни амалга оширади ҳамда ҳисоб-фактура ва тўлов ҳисобварақини ёзиб беради.

"Истеъмолчи"да турли тариф гуруҳларига тегишли бўлган бир нечта объект мавжуд бўлган тақдирда, ҳар бир тариф гуруҳи кўрсатилган ҳолда умумий ҳисоб-фактура ёзилади.

3.8. Ҳисоблагичлар ушбу шартноманинг 4-иловасидаги томонларнинг электр тармоқлари баланс мансублиги ва фойдаланиш бўйича масъуллигини тақсимлаш бўйича далолатномага мувофиқ аниқланадиган электр тармоғининг баланс бўйича мансублик чегарасида ўрнатилмаганда, электр тармоғининг чегарасидан ҳисоблагич ўрнатилган жойгача бўлган участкадаги энергиянинг технологик сарфининг ҳажми

6.3. Шартнома томонларнинг бирини ташаббуси билан муддатидан олдин бекор қилинганда иккинчи томонни бекор қилиш муддатидан ўттиз кун олдин хабардор қилган холда, томонларнинг ўзаро хисоб-китоб қилганлик шарти билан амалга оширилиши мумкин. Бекор қилиш тўғрисида хабарнома ёзма равишда тақдим қилинади.

6.4. Барча ўзгартиришлар ва қўшимчалар, агар улар фақат ёзма равишда бўлган ва томонларнинг ваколатли шахслари томонидан имзоланган бўлса хақиқийдир.

## VII. Томонларнинг манзиллари ва банк реквизитлари

*"Истеъмолчи":* МТБ
Почта манзили: Балиқчи т
Хисоб рақами 100022860032067098602251003
Банк коди (МФО) 00014 (ИНН) 305155579
Республика ва махаллий бюджетдан молиялаштириладиган "Истеъмолчи"лар учун:
Бюджет фондининг хисоб рақами
Банк коди (МФО) (ИНН)

Бюджетдан ташқари фондининг хисоб рақами Газнахр: 23402000300100001010
Банк коди (МФО) 00014 (ИНН) 201122919
Телефонлар: Факс
("Истеъмолчи" телефон рақамлари, шу жумладан унинг рахбарини уяли телефони кўрсатилади)
Статистик кодлар:
ОКЭД
СООГУ
СОАТО
КФС
ОКПО

*Корхона:* Почта манзили: Балиқчи ТЭТИ Номанов кўча 3уй
Хисоб рақами 22636000000225972308
Банк коди (МФО) 00075 (ИНН) 200136792
Телефонлар: Факс:
Статистик кодлар. СООГУ 11170 СОАТО 1703206

"Истеъмолчи": "Корхона":
ф. ... Жураев

*Юрист хулосаси:*
(имзо) А Ахмедов (Ф.И.Ш)





### Етказиб бериладиган энергия хажми

1. Тариф гурухи
2. Фаолият тури
3. "Истеъмолчи" электр курилмаларининг уланган куввати кВА (кВт)
4. Электр таъминоти ишончлилиги бўйича тоифаси (лойиха бўйича)
5. Хисоб-китоб тури.

| Йил жами | Энергия хажми минг. кВт.с | Шу жумладан, тариф гурухлари бўйича | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | 23,331 | | | | |
| Январь | 7,777 | | | | |
| Февраль | 7,777 | | | | |
| Март | 7,777 | | | | |
| Апрель | | | | | |
| Май | | | | | |
| Июнь | | | | | |
| Июль | | | | | |
| Август | | | | | |
| Сентябрь | | | | | |
| Октябрь | | | | | |
| Ноябрь | | | | | |
| Декабрь | | | | | |

Корхона бир кунда 10 соат, бир ойида 30 кун ишлайди.
Сменалар бўйича юклама тақсимоти (фоиз хисобида I 100 II III

"Истеъмолчи": "Корхона":
Жураев



### Энергия хисоблагичлари ўрнатилган жойлари ва тавсифлари

| "Истеъмолчи"нинг (суб"Истеъмолчи"нинг) хисоблагичлари ўрнатилган жойлар, тури ва кучланиш синфи (кВ) кўрсатилган холда | Хисоблагич тури (актив, реактив), (номинал ток) Хисоблагич номери Хисоблагич клемма колпогидаги пломбанинг номери | Хисоблагич ... рақами | Хисоблагич клемма колпогидаги пломбанинг номери | | Ўлчов трансформатор-ларнинг трансформация коэффициенти | | Хисоб к... коэффиц... |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Корхонанинг | Бошқанинг | ток | кучланиш | |
| Очкич | EX-S12 | | | | | | |
| Иши | | | | | | | |
| | | | | | | | |

"Истеъмолчи": "Корхона":
Жураев

*Юридик шахслар учун электр таъминоти шартномасига 2 - илова*

Энергия (актив, реактив) сарфи бўйича
**ХИСОБОТ**

20___ йил ____________ ойи бўйича
Кўрсаткичлар қайд этилган сана «___» ____________ 20____ йил.
Уланишнинг номи, хисоблагичнинг завод номери ____________
хисобга олиш тури (актив,реактив) ____________
Хисоб-китоб коэффициенти ____________
Хисоблагич кўрсаткичлари ____________
Хисоблагич кўрсаткич-ларининг фарқи ____________
Сарф ____________ кВт.с, ____________ кВАр.с ____________
Табақалаштирилган тариф бўйича сарф кВт.с. ____________
ток трансфор-маторининг (ТТ) кучла-ниш трансформаторининг (КТ)
умумий бошланғич охирги Эрта-лабки максимум Кун
Кечки максимум Тун соат 6-9, Соат 9-17, соат 17-22, соат 22-24, соат 0-6,
Жами, Изох. гр 7- гр 6 гр 8 ... тасдиқланган хисоб учун назорат рақами гр 7 гр 9 гр10 гр11 гр12 гр13 гр 8 гр 7*гр 4

"Истеъмолчи" рахбари ____________ "Корхона" вакили ____________ *[signature]* Э. Шўраев *[signature]*

Бош энергетик ____________

*Юридик шахслар учун электр таъминоти шартномасига 4 - илова*

**Томонлар электр тармоқларининг баланс мансублиги ва эксплуатация қилиш бўйича масъулик чегараси ДАЛОЛАТНОМАСИ**

1. "Истеъмолчи"нинг балансида қуйидаги электр қурилмалар мавжуд:
а) хаво линиялари l = 10 метр
б) кабель линиялари l = 8 метр
в) нимстанциялар, трансформатор нимстанциялари 10. КВТли фидир он кўргон

2. "Истеъмолчи" ва "Корхона" ўртасидаги электр тармоқларининг баланс бўйича мансублик чегараси: Истемолчи хаво линия 0,4 КВли ТЭЧ Тосорфидон Таянг изоляторга уланган шайдор тегра ажиги ____ аниқланади.

3. Улардан қуйидагилари:
а) 2 бокор кўрсатилган уланган нуқтадан бошқа барча эл ишлари истемол учун хаёжи кўрсатилган хизмат кўрсатиш "Истеъмолчи" ходимлари томонидан,
б) 2.3 бокор кўрсатилган уланган нуқтадан бошқа барча эл ишлари исталган учун жавоб. ____ "Истеъмолчи" билан тузилган шартнома асосида электр таъминоти корхонаси томонидан амалга оширилади.

4. Электр қурилмаларининг холати ва уларга техник хизмат кўрсатиш бўйича жавобгарлик чегараси қуйидагича белгиланди: ____________

Вакиллар:

"Истеъмолчи" ____________ *[signature]* "Корхона" ____________ Э. Шўраев *[signature]*



*Юридик шахслар учун электр таъминоти шартномасига 5 - илова*

Энергия йўқолишларини аниқлаш бўйича ДАЛОЛАТНОМА

Энергия хисоблагичлар электр тармоғининг баланс бўйича мансублик чегарасида ўрнатилмаганда, электр тармоғининг мансублик чегарасидан хисоблагич ўрнатилган жойгача бўлган участкадаги хисобланган йўли билан аниқланган энергиянинг технологик (сарфи) йўқолишлари бу: а) Қуввати ______ кВА бўлган трансформаторлардаги ойлик актив энергиянинг йўқолишлари ______ кВт.соат ёки ______ фоизини, реактив энергия йўқолишлари ______ кВАр.соат ёки ______ фоизини ташкил этади, б) «Истеъмолчи"нинг кабель линияларидаги хар ойлик энергия йўқолишлари. Узунлиги ______ м, Кесим юзаси ______ мм2, Русуми ______; Кучланиши ______ кВ бўлса, ______ кВт соатни, ёки ______ фоизни ташкил этади, в) «Истеъмолчи"нинг хаво линияларидаги хар ойлик энергия йўқолишлари. Узунлиги ______ м, Кесим юзаси ______ мм2, Русуми ______ Кучланиши ______ кВ бўлса, ______ кВт.соатни, ёки ______ фоизни ташкил этади. Жами хар ойлик энергия йўқолишлари хажми хисоб-китоб қилинган энергия сарфининг ______ фоизини ташкил этади.

Имзолар:

"Истеъмолчи" ____________ *[signature]* "Корхона": ____________ Э. Шўраев *[signature]*

*Юридик шахслар учун электр таъминоти шартномасига 6 – илова*

**Компенсация қурилмаларининг ишлаш режими**

1. Компенсация қурилмаларининг ўрнатилган қуввати

| Т/р № | Компенсация қурилмаларининг турлари | Қуввати | Уланиш вақти: Эрталаб | Уланиш вақти: Кечқурун | Жами |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Конденсаторлар, кВАр<br>1000 Вгача<br>1000 Вдан юқори,<br>жумладан: | | | | |
| 1.1 | Автоматик ростлаш билан.<br>1000 Вгача<br>1000 Вдан юқори, | | | | |
| 1.2 | Дастаки ростлаш билан:<br>1000 Вгача<br>1000 Вдан юқори, | | | | |
| 2 | Синхрон двигателлар - (СД), кВт | | | | |
| 3 | СДнинг реактив қуввати, кВар (СДнинг ўрнатилган қувватининг 30 фоизи, кВт) | | | | |
| 4 | Жами (1б.+3б.) кВАр:<br>1000 Вгача<br>1000 Вдан юқори. | | | | |

**2. Реактив энергиянинг иқтисодий миқдори**

| Йил, ой | Реактив энергиянинг иқтисодий миқдори (кВАр.соат) | Шу жумладан | Шу жумладан тариф гурухлари бўйича | Қувват коэффициенти кўрсаткичлари |
|---|---|---|---|---|
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | | | | |

Устама қўшилган қиймат солиғи ҳисобга олинмаган ҳолда реактив энергия истеъмоли иқтисодий қиймат доирасида бўлганида актив энергия учун амалдаги тарифнинг 5% миқдорида, иқтисодий қийматдан ортиқ бўлганида актив энергия учун амалдаги тарифнинг 10% миқдорида белгиланади.

Реактив энергия компенсацияси учун устамалар жарима санкцияси ҳисобланмайди ва электр таъминоти шартномасига асосан ундирилади.

Тарифдан чегирмалар «Истеъмолчи» томонидан электр тармоғининг катта юкламали соатларида ягона электр энергетика тизими тармоғига реактив энергия берилганда ва электр тармоғининг кичик юкламали соатларида энергия тизими тармоғидан реактив энергия истеъмол қилинганда, агар «Истеъмолчи» бундай иш режимида ишлаш зарурати Шартномада кўрсатилган бўлганда амалга оширилади.

Чегирма қўшилган қиймат солиғи ҳисобга олинмаган ҳолда актив энергия учун амалдаги тарифнинг 15% миқдорида белгиланади.

Имзолар:

"Истеъмолчи": "Корхона":

_Юридик шахслар учун электр таъминоти шартномасига 7 - илова_

**Аварийвий ва технологик бронни аниқлаш бўйича**
**ДАЛОЛАТНОМА**

Тузилди

"Истеъмолчи"нинг вакили иштирокида

Ягона электр энергетикаси тизимида узоқ муддатли ёки қисқа муддатли қувват танқислиги юзага келганда "Истеъмолчи" қуйидагиларни бажариши керак:

1. Ускуна юкламасини технологик бронь даражасигача пасайтириш:

Технологик бронига тааллуқли цехлар ва агрегатлар номи ___________

Ишда қолдирилган юкламалар қуввати (кВт)___________

*а) Барча цехлар ва агрегатлар зудлик билан ўчирилади. Ўчирилиши яроқсиз маҳсулот ишлаб чиқарилиши, ускунанинг бузилиши, портлаш, ёнғин, заҳарланиш ва бошқа бахтсиз ҳодисаларга олиб келувчи цехлар ва агрегатлар бундан мустасно

б) Технологик бронга шунингдек авария бронига тааллуқли цехлар ва агрегатлар ҳам киради (2-бандга қаранг.)

Технологик бронни чеклаш босқичлари.

I босқич ___________ кВт

II босқич ___________ кВт

III босқич ___________ кВт

IV босқич ___________ кВт

2 ___________ ўтганидан кейин цехлар ва агрегатлар авария брони даражасигача узиб қўйилади.

Авария бронига тааллуқли цехлар ва агрегатлар номи___________Ишда қолдирилган юкламалар қуввати (кВт) ___________

Изох ___________ Жами ___ кВт

* а) Юклама остида ўчирилиши сув таъминоти, алоқа воситалари ишининг тўхташига, иситиш тизимининг музлаб қолишига олиб келувчи цехлар ва агрегатлар ҳамда қўриқлаш ёритиш тизими қолдирилади.

б) Авария бронига захирадаги ёнғинга қарши насослар ва бошқа ёнғинга қарши агрегатлар тааллуқли эмас. (ушбу агрегатлар, керак бўлишига қараб, олдиндан "Корхона" билан келишилган ҳолда рўйхатга киритилиши мумкин).

Имзолар:

"Истеъмолчи": "Корхона":

2022 йил 26 01 даги 150 -сонли
Шартномага илова

## Электр энергияси ва кувватни истеъмол килиш микдори

(сум хисобида)

| | Бир кВт электр энергия нархи | Электр энергия, жами бир кВТ соат | Электр энергия, жами суммаси | Шундан туловлар | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Бюджет хисобидан | Махсус хисоб ракамидан |
| **Йил, жами** | | **23331** | **10498950,00** | **10498950,00** | **0** |
| **1 чорак** | | **23331** | **10498950,00** | **10498950,00** | **0** |
| Январь | 450 | 7777 | 3499650,00 | 3499650,00 | |
| Февраль | 450 | 7777 | 3499650,00 | 3499650,00 | |
| Март | 450 | 7777 | 3499650,00 | 3499650,00 | |
| **2 чорак** | | **0** | **0** | **0,00** | **0** |
| Апрель | | | 0 | 0,00 | |
| Май | | | 0 | 0,00 | |
| Июнь | | | 0 | 0,00 | |
| **3 чорак** | | **0** | **0** | **0,00** | **0** |
| Июль | | | 0 | 0,00 | |
| Август | | | 0 | 0,00 | |
| Сентябрь | | | 0 | 0,00 | |
| **4 чорак** | | **0** | **0** | **0,00** | **0** |
| Октябр | | | 0 | 0,00 | |
| Ноябр | | | 0 | 0,00 | |
| Декабрь | | | 0 | 0,00 | |

Изох: бюджет ташкилоти томонидан истеъмол килинган электр энергия микдори

**"Таъминотчи"**

**Баликчи Электр тармоклари**

Рахбари: ____________________

**"Истеъмолчи"**

**Мактабгача таълим булими**

Рахбари: ____________________Ф.Абдуразакова

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

**№ HT28302532**

1. Loyihaning turi

**Shartnoma**

2. Loyihaning nomi

**Oldi-sotdi shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

**Baliqchi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 26.01.2022**

4. Mas'ul ijrochi

Baliqchi tuman adliya bo'limi huzuridagi davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yil 26-yanvar kuni "E-Huquqshunos" elektron tizimi orqali Baliqchi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan elektr-energiyasi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan. Shartnomani o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 5-bandiga asosan boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 71-moddasida *yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladi* deb belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktyabrda 2147-son bilan ro'yxatga olingan Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestrini tuzish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan 2021-yil 1-sentyabr holatiga shakllantirilgan Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestrida Elektr energiyasini transportirovka qilish xizmati "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va uning tizimidagi 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 241-son qarori bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatida elektr energiyasi uchun avans to'lovlari miqdori kamida 30% amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

**XULOSA QILAMAN:**

Baliqchi tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan elektr-energiyasi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi Fuqorolik Kodeksi 2-qismining 6-paragraf Energiya ta'minoti shartnomasi, Fuqarolik Kodeksi 38-bob Haq evaziga hizmat ko'rsatish, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son Qarorining 10-13-moddalari hamda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 241-son qarori bilan tasdiqlangan Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxati talablariga muvofiqligi inobatga olinsin.

**Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.**

**27.01.2022**

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i :** **J.Nazarov**